

TEATRLASHTIRILGAN TOMOSHA YARATISH**Sultonov Dostonbek***O'zDSMI FMF "Dramatik teatr rejissorligi" 4-bosqich**Talabasi sultonovdoston07@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Teatrlashtirilgan tomosha yaratish" va uning rivojlanishi haqida juda kerakli ma'lumotlar yoritilgan va ushbu maqolani o'qish orqali tanishib olishiz mumkin.*


Kalit so'zlar: *Shartli musiqa, teatr ovoz rejissorligi, spektaklda musiqa, uvertyura, musiqiy antrakt, musiqiy final, syujetli musiqa.*

Spektakllardagi musiqiy janrlar odatda mualliflik chekinishi funksiyasini bajaradi. Ular yordamida spektaklda kechayotgan voqealarga muallif yoki sahnalashtiruvchi tomonidan baho berilishi mumkindir.

Tomosha san'atlarining ovoz rejissyorligi badiiy yaxlitlik sifatidagi tomoshalar (spektakl, film, konsertlarda) tovushqatorini yaratish bo'yicha badiiy ijodning bir turidir. Material spetsifikasi, ifodaviy imkoniyatlar va badiiy tomoshani ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq holda u o'z xususiyatlariga ega bo'ladi.

Ovoz rejissyorligi - spektakl umumiy rejissurasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib va shu sabab birinchi navbatda u bilan sahnalashtiruvchining o'zi shug'ullanadi. Ammo spektakl ovoz rejissurasining masalalari ovoz texnikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu teatrdagi yangi ijodkor ishchi - teatr ovoz rejissyorining paydo bo'lishini belgilab berdi. Tomosha san'atlarining ovoz rejissori sahnalashtiruvchi rejissyor va kompozitor bilan hamkorlikda badiiy-ifoda vositalari va zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlarining ulkan spektrini amalga oshirgan holda, audiovizual asarning tovush palitrasini yaratadi.

Ye.Averbaxning "Ovozli obrazning tug'ilishi" nomli kitobida ovoz rejissyori ishining uchta asosiy tarkibiy qismi ajratib ko'rsatilgan bular: tovush bilan ishlash; partitura (matn) bilan ishlash; ijrochi bilan ishlashdir.



Spektakl tovushqatorining yaratilish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

- asardagi tovushli tomosha obrazi konseptual modelining pesa adabiy ssenariysi, rejissorlik ishlanmasi va tas'viriy material asosida shakllanishi;
- mazkur konsepsiyaning ovoz rejissorligi vositalari orqali amalga oshirilishi.

Teatrlashtirilgan tomoshaning ovoz rejissyori musiqa, spektaklning bu yoki boshqa joyida, u yoki bu sahnada nimani ifodalashini aniq biladi. Asarni nigoh bilan to'raligicha qamrab ola bilgandagina, qaysi voqelik funksiyasida aynan qanday musiqa kerak bo'lishini ajratib olish mumkin. Spektakl uchun musiqa tinglash va saralash davomida nafaqat dramaturgik materialni o'rganish, balki bezakning batafsil sahnalashtiruvchi rejasini ham ishlab chiqish lozim. Musiqa tanlash spektakl repetitsiyasi jarayonida ijrochilar, rejissyor va rassom bilan bo'ladigan doimiy ijodiy muloqot davomida yuzaga keluvchi bevosita assotsiatsiyalarni hisobga olgachgina o'tkazilishi kerak. Musiqa tanlashda spektaklning janr alomatlari katta ahamiyat kasb etadi. Komediya, drama,

fojea, bolalar ertagi, myuzikl shakl va janr jihatdan turli xil musiqani talab etadi. Muallif uslubi va musiqiy asarning tabiiy birligi alohida musiqiy va badiiy didni talab etadi.

Teatrlashtirilgan tomoshaning asosi shundaki, vizual harakatlar va matn harakatlari ajralmas butunlikka birlashadi, shu bilan birga ular etarli darajada mustaqillikni saqlab turadilar va bir-birlariga har xil darajada hukmronlik qilishlari mumkindir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Averbax E. Rojdenie 3ByKoBoro o6pa3a. M.: McKyccTBo, 1985. — 239 s.
2. Barashv A.A. Pytevoditel no rejissure i akters^mu masterstvu: Ucheb.posobie. SPB., 2001. — 200 c.
3. K^uren^ Yu. Ostovы zvykorejissyry v teatre. M.: Iskysstvo, 1975. — 248 s.
- 4.Xoliqulova, G.E. (2007). Sahna nutqi. Toshkent-2007[1]